

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**
NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI



Yer usti transport tizimlari kafedrasи

Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari
fanidan

**Mavzu: Haydovchilarning umumiy majburiyatları, piyoda va
yo'lovchilarning vazifalari.**

REFERATI

Bajardi

40-YUTTUE 13 guruh talabasi

Yusufxonov Zokirxon

Namangan 2015 y.

Reja

1. Xaydovchilarning umumiy majburiyatlari
2. Yo'l transport xodisasi sodir etgan xaydovchilarning vazifalari.
3. Piyodalarning vazifalari
4. Yo'lovchilarning vazifalari

K I R I S H

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ham jismoniy, ham aqliy mehnatga layoqatli, xalq xo'jaligida, ijtimoiy va davlat hayotida, fan va madaniyat sohalarida faoliyat ko'rsatishga qodir, ongli va raqobatbardosh, bilimdon kadrlarni tayyorlash uchun «Ta'lif to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Bu dasturga asosan ta'lif tizimining asosiy vazifasi ishlab - chiqarish ta'limi ustalari va maxsus fan o'qituvchilarining malakalarini oshirish asosida xalq xo'jaligi uchun tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlashdir. Buning uchun o'rgatilayotgan nazariy va amaliy darslarni kerakli bo'lgan o'quv materiallari bilan ta'minlash, o'quvchilarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish asosiy maqsadqilib olindi.

Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari fani- transport vositasining haydovchilari, yo'lovchilar va piyodalar yo'llarda harakatlanish jarayonida barcha qonun qoidalarga rioya qilgan holda harakatlanishlari buning natijasida mamlakat aholisining sog'-salomatligini ta'minlashga, og'ir oqibatli yo'l transport hodisalarini oldini olishga qaratilgan bilimlarni talabalarga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Quyida keltirilgan majburiyatlar va vazifalarni barcha yo'l harakati qatnashchilari so'zsiz bajarishlari va amal qilishlari kerak.

1.Haydovchilarning umumiy majburiyatları

Mexanik transport vositasining haydovchisi:

Haydovchilik guvohnomasi va uning taloni yoki transport vositasini vaqtinchalik boshqarish xuquqini beruvchi taloni, haydovchilik guvohnomasi belgilangan tartibda olib qo'yilgan bo'lsa uning talonini, haydovchilik guvohnomasi va uning taloni olib qo'yilgan hollarda vaqtinchalik ruxsatnomani; vaqtinchalik boshqarish xuquqini beruvchi talon yoki vaqtinchalik ruxsatnomani

bilan transport vositasini boshqarishda esa haydovchining shaxsini tasdiqllovchi hujjatni (fuqarolik pasporti va h.k);

Transport vositasini ro'yxatdan o'tkazilgani haqidagi hujjatni, transport vositasining egasi bo'lmanan hollarda esa umumiyligini beruvchi, tasarrufga yoki foydalanishga berilganligini tasdiqllovchi hujjatni, belgilangan hollarda yo'l varaqasi va tashilayotgan yukni hujjatlarini yonida olib yurishi, militsiya xodimlari talabqilganda tekshirish uchun berishi shartdir.

Tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lgan shaxs o'zigaqarashli bo'lmanan transport vositasini, uning egasi yohud tasarrufga yoki foydalanishga berilganligini tasdiqllovchi hujjatlari bo'lgan shaxs ishtirokidagina (ularning roziligi bilan) boshqarishi mumkin.

Mototsiklda harakatlanayotganda haydovchi maxsus bosh kiyimini kiyib olishi, tugmalashi, yo'lovchilar ham maxsus bosh kiyimini kiygan va tugmalangan holda bo'lishi shart.

Xalqaro yo'llardagi harakatlanishda ishtirok etayotgan mexanik transport vositasi haydovchisining yonida «Yo'l harakati haqidagi» Konvensiya talablariga mos keladigan haydovchilik guvohnomasi va transport vositasining ro'yxatdan o'tganligi haqidagi hujjat, transport vositasida esa ro'yxatdan o'tgan davlatning raqamli va taniqli belgisi bo'lishi shart.

Transport vositasining haydovchisi quyidagilarga amal qilishga majburdir:

- harakatlanishdan oldin transport vositasining texnik sozligini, tozaligini va to'liq jihozlanganligini tekshirishi;
- harakatlanish vaqtida transport vositasi texnik holatining soz holda bo'lishini ta'minlashi;
- harakatlanishni boshlashdan oldin yo'lovchilarining transport vositasiga to'lik chiqib, joylarini to'lik egallaganligiga, transport vositasining eshiklari yopilganligiga, yo'lovchilar tashish uchun maxsus jihozlangan yuk avtomobillarida yo'lovchilar tashiyotganda qoidalarning 6.2 bandi talab-lari bajarilganligiga ishonch hosil qilishi;

- harakatlanish jarayonida piyodalar, ayniqsa, bolalar, nogironlar, qariyalarga va velosipedchilarga nisbatan ehtiyojkorlik choralarini ko'rishi;
- militsiya xodimlarining talabiga ko'ra mastlik holatini aniqlovchi maxsus tekshiruvdan o'tishi;
- yo'l-transport hodisasi tufayli shikastlangan transport vositasini shatakka olish (faqat yuk avtomobilida), tabiiy ofatlar sodir bo'lgan joylarga yetib borish, shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarish zaruriyati tug'ilgan hollarda militsiya xodimlariga, zudlik bilan tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarni davolash muassasasiga olib borish uchun tibbiyot va militsiya xodimlariga, militsiyani shtatdan tashkari xodimlariga va jamoatchi nazoratchilarga transport vositalaridan foydalanishga imkon berishi.

Eslatma: tibbiy xizmatlar uchun transport vositasidan foydalanishga imkon berishdan boshqa hollar fuqarolarga tegishli transport vositalariga taalluqli emas. Transport vositasidan foydalangan shaxs haydovchi talabqilganda, yo'l varaqasiga yurilgan vaqtini, bosib o'tilgan masofani, o'z ismi-sharifi, mansabi, ish joyi nomini, yo'l varaqasi bo'lмаган taqdirda tegishli namunadagi ma'lumotnomaga yozib berishi lozim. Transport vositalarini tekshirish yoki undan foydalanish xuquqiga ega bo'lgan shaxs haydovchining talabiga muvofik o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatishi shart.

Haydovchilarga quyidagilar ta'qiqlanadi:

- transport vositasini harqanday mastlik (alkogol, giyoh-vand modda va boshqalar) holatida, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga taxdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblikda boshqarish ;
- harqanday mastlik holatida, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavf-sizligiga tahdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblikda bo'lgan, shuningdek, transport vositasini boshqarish xuquqini beradigan tegishli toifadagi guvohnomasi bo'lмаган yoki yo'l varaqasida ismi-sharifi ko'rsatilmagan shaxslarga transport vositasini boshqarish uchun topshirish;

- texnik nosoz transport vositasini, moped, motorollyor va motosikllarni tovush pasaytirgichsiz boshqarish;

- transport vositasining tormoz tizimi yoki boshqaruvi ishdan chiqsa, ulagich moslamasi (avtopoezd tarkibida) nosoz bo'lsa, qorong'i vaqtida yoki yetarlicha ko'rinnmaslik sharoitida- faralar va orqa gabarit chiroqlari yonmassa, yomg'ir, qor yogayotgan vaqtida esa, haydovchi tomonidagi oyna tozalagich ishlamayqolsa, bunday transport vositalarida harakatlanish.

Eslatma:-ishchi tormoz tizimi yoki boshqaruvi sekin harakatlanayotgan transport vositasini to'xtashi yoki manyovrqlishiga imkon bermasa, ular ishlamayotgan hisoblanadi;

- transport vositalariga maxsus ruxsatsiz texnik jihozlar (ratsiya, sirena va h.k) o'rnatish;

- transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi (shu-ningdek, piyodalar jamlanmalari) harakatiga xalaqit berish va ular orasiga kirish.

2. Yo'l transport xodisasi sodir etgan xaydovchilarining vazifalari.

Yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda, o'nga daxldor haydovchilar qo'yidagi larni bajarishlari shart:

- transport vositasini darhol to'xtatishi, falokat yorug'lik ishoralarini yoki falokat sababli to'xtash belgisi (miltillovchi qizil chiroq)ni o'rnatishi, transport vositasini va hodisaga daxldor buyumlarni joyidan qo'zgatmasligi;

- shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish uchun zarur bo'lgan choralarни ko'rishi, «tez tibbiy yordam»ni chaqirishi, shoshilinch hollarda esa shikastlanganlarni yaqin oradagi davolash muassasasiga yo'lakay transportda jo'natishi, buning iloji bo'lmanan hollarda o'z transport vositasida olib borishi, u yerda o'z ismi-sharifini, transport vositasining raqamli belgisini bildirishi (haydovchilik guvohnomasini yoki o'z shaxsini tasdiqlovchi, transport vositasining ro'yxatdan o'tganlik hujjatini ko'rsatishi) va hodisa ro'y bergan joygaqaytib kelishi;

- agar boshqa transport vositalarining harakatiga to'sqin-likqilsa, avvalo transport vositasi, hodisaga aloqador buyumlar va izlarning holatiniqayd etib (imkoniyati bo'lgan hollarda guvohlar ishtirokida), ularning yo'qolmasligini ta'minlashi, so'ngraqatnovqismini bo'shatishi yoki hodisa ro'y bergan joyni aylanib o'tishni tashkilqilishni o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarini ko'rishi;

- hodisa haqida militsiyaga xabar berishi, guvohlarning ismi-sharifini va manzilgoxini yozib olib, militsiya xodimlarining kelishini kutishi.

Agar yo'l-transport hodisasida shikastlanganlar bo'lmasa va haydovchilar hodisa vaziyatiga bah berishda o'zaro kelisha olsalar, oldindan hodisa chizmasini tuzib va uni imzolab, yaqin oradagi YXXT bo'limiga yoki militsiya organiga hodisani rasmiylashtirish uchun borishlari mumkin.

3. Piyodalarning vazifalari

Piyodalar trotuardan yoki piyodalar yo'lkasidan, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqasidan yurishlari kerak. qo'pol yuklarni olib ketayotgan, nogironlarning yurgizgichsiz aravachasida ketayotgan shaxslarning trotuar yoki yo'l yoqasidan yurishlari, boshqa piyodalarning harakatlanishiga xalaqit berayotgan bo'lsa, ularqatnovqismining chetidan yurishlari kerak.

Trotuarlar, piyodalar yo'liasi, yo'l yoqasi bo'lmasa yoki ulardan yurishning imkoniyati bo'lмаган hollarda piyodalar velosiped yo'lkasidan yoki qatnovqismining chekkasidan (ajratish bo'lagi bor yo'llardan, qatnovqismining o'ng chetidan) birqator bo'lib yurishlari mumkin.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida yo'lning qatnovqismida harakatlanayotgan piyodalar, transport vositasining harakat yo'nali shiga qarshi yurishlari kerak.

Nogironlarning yurgizgichsiz aravasida ketayotgan, mototsikl, moped, velosiped yetaklab ketayotgan shaxslar esa bunday hollarda transport vositasining harakat yo'nali shi bo'y lab yurishlari kerak.

Eslatma: piyodalar yo'lkasida, trotuarlarda, yo'lning yoqasida piyodalarning harakatlanishiga xalaqit beradiganqurilma va jihozlarni o'rnatish man etiladi.

Piyodalarning tashkiliy jamlanmasida birqatorda to'rt kishidan ortiq bo'lmasdan, yo'lningqatnovqismida faqat transport vositalarining harakat yo'naliishi bo'yab o'ng tomondan yurishiga ruhsat etiladi.

Jamlanmaning oldi va orqasida chap tomondanqizil bayroqcha,qorong'i vaqtida yoki yetarlicha ko'rinaslik sharoitida esa oldinda oq, orqada qizil rangli chiroq ko'targan kuzatuvchilar bo'lishi kerak.

Bolalar guruhiini trotuarlar va piyodalar yo'lkalarida, ular bo'limganda esa yo'l yoqasidan faqat kunduzi va katta yoshdagilar kuzatuvida olib yurishga ruxsat etiladi.

Piyodalar yo'lningqatnovqismini piyodalar o'tish joylaridan, shuningdek, yer osti va yer usti o'tish joylaridan, ular bo'limganda esa chorrahalarda trotuar chiziqlari yoki yo'l yoqasi bo'yab kesib o'tishlari kerak.

Ko'rinaridigan oraliqda o'tish joyi yoki chorraha bo'lmasa, ajratuvchi bo'laksiz va to'siqsiz yo'llarda piyodalarga yo'lning ikki tomoni yaxshi ko'rinaridigan joyidanqatnovqismining chetiga nisbatan to'g'ri burchak ostida kesib o'tishlariga ruxsat etiladi.

Piyodalar yo'l harakati tartibga solingan joylarda tartibga soluvchining yoki svetoforlarning, ular bo'limganda esa transport svetoforlarining ishoralariga amalqilishlari kerak.

Piyodalar harakati tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida yaqinlashib kelayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofani va uning tezligini chandalab ko'rib, o'tish o'zları uchun xavfsiz ekanligiga ishonch hosilqilganlaridan so'ng yo'lningqatnovqismiga chiqishlari mumkin. SHuningdek, ular yo'lningqatnovqismini piyodalar o'tish joylaridan tashqarida kesib o'tishda transport vositalarining harakatlanishiga xalaqit bermasliklari, yaqinlashib kelayotgan transport vositalarining yo'qligiga ishonch hosilqilmasdan turib, ko'rinishni cheklovchi to'xtab turgan transport vositasi

yoki biror to'siq panasidan chiqmasliklari kerak. Piyodalar to'xtab turgan avtobus va trolleybusni orqa tomonidan, tramvayning esa oldi tomonidan yo'lni kesib o'tishlari shart.

Agar yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lmasa, qatnovqismiga chiqqan piyodalar ushlanib qolmasliklari va to'xtamasliklari kerak. O'tishga o'lgurmagan piyodalarqarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimlarini ajratuvchi chiziqda to'xtashlari lozim. Keyingi harakatlanish xavfsiz ekanligiga ishonch hosilqilgandan so'ng va svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralarini hisobga olgan holda o'tishni davom ettirishlari mumkin.

Yalt-yalt etuvchi ko'k rangli yoki ko'k vaqizil rangli chiroq-mayoqchasi va (yoki) maxsus tovush ishorasi yoqilgan transport vositalari yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, piyodalarqatnovqismidan o'tmasliklari, unda harakatlanayotganlar esa bu transport vositalariga yo'l berishlari va zudlik bilanqatnovqismini bo'shatishlari kerak.

Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalari va taksilarni faqat bekatlarda, ular bo'limgan taqdirda esa trotuarlar yoki yo'l yoqasida ko'tishlari kerak. Maxsus jihozlangan bekatlari bo'limgan to'xtash joylarida transport vositasi to'la to'xtagandan so'ng o'ngga chiqish uchun yo'ningqatnovqismiga chiqishga ruxsat etiladi. Undan tushgandan keyin ushlanibqolmasdan yo'ningqatnovqismini bo'shatishlari shart. Bekatlarga borayotgan yoki undanqaytayotgan piyodalarqoidalarning 5.4-5.7 bandlari talablariga amalqlishlari kerak.

4. Yo'lovchilarining vazifalari

Yo'lovchilar transport vositasiga faqat u to'la to'xtagandan so'ng trotuar yoki yo'l yoqasi tomonidan chiqishi va tushishiga, mototsiklda harakatlanayotganda esa, maxsus bosh kiyimini tugmalashga majburdirlar.

Yo'lovchilarining transport vositalaridan trotuar yoki yo'l yoqasi tomonidan tushishi yoki ularga chiqishning iloji bo'limgan

hollarda qatnov qismida amalga oshirilishi mumkin. Bunda boshka yo'1 harakatiqatnashchilariga xalaqit bermasligi va xavf tug'dirmasligi kerak.

Yo'lovchilarga: transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda haydovchini boshqarishdan chalg'itish va o'nga xalaqit berish, bortli yuk avtomobil larida tik turish, bortlar sathidan yoki undan yuqoridagi yuk ustida o'tirish, transport vositasi harakatlangan vaqtda uning oynalaridan qo'lini chiqarish, biror boshka materiallarni tashlab, yo'lni ifloslantirish va eshiklarni ochish ta'qilganadi.

Yo'llarda haydovchi, yo'lovchi va piyodalar o'z majburiyat va vazifalariga to'liq rioya qilgan holda harakatlanishsa yo'llarda yo'1 transport hodisalarini sodir bo'lish ehtimol ligi ma'lum darajada kamayadi. Bundan tashqari harakatlanish davomida harakat qatnashchilari bir-birlariga o'zaro hurmatni saqlagan holda harakatlanish buning natijasida mamlakat aholisining sog'-salomatligini ta'minlashga yo'llarda harakatlanish madaniyatini oshishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «Yo’l harakati qoidalari». Toshkent – 2001 y., 88 bet.
2. N. Muxitdinov, A. Inoyatov, U. Usmonov.«Yo’l belgilari va yo’l chiziqlari». Toshkent – 2001 y., 48 bet.
3. Q.X.Azizov. «Yo’llarda xavfsiz harakatlanish asoslari». Toshkent – 2005 y., 72 bet.
4. N.F.Muhitdinov, G.K.Nurmuhamedov, R.N.Dimetov «Yo’l harakati qoidalariga sharhlar». Toshkent - 2005 y., 132 bet.